XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-030-5-71-K/24 Karmana tumani

Karmana tumanining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024- yil 24-dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011 sonli Qonuniga muvofiq hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24–moddalarini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011 sonli Qonuni hamda Navoiy viloyati Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-3-025-5-0-K/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025 yilgi tumanni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi 1-ilovaga hamda 2025 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman budjetidan 2025 yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2025 yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 5-ilovaga, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi “Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada

kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458-sonli qaroriga asosan, tumanda jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan daromadlaridan tushadigan soliq, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig‘i (noturar joylar bo‘yicha mol-mulk va yer soliqlaridan tashqari) bo‘yicha undirilgan mablag‘larning 10 foizi hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar tuman budjeti orqali 2025-yil uchun “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari 7-ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

7. 2025-yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 589 797,0 ming. so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar budjetining 2025-yil uchun zahira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Bunda davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda budjetlarining zaxira jamg‘armalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantiriladi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish tegishincha yuqori turuvchi budjetlarning zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armalari mablag‘larini tumanning tuman budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

Tuman mahalliy budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarning zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

8. 2025 yil uchun tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 770 663,0 ming.so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2025 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2025 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) Karmana tuman mahalliy budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar taqsimlanadi:

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilingan 5 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Rustamov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Axmedov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Axmedov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib, soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video

materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

Kadastr palatasi tuman bo‘limi (S.Aliqulov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

12. Majburiy ijro byurosi, tuman soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

13. Tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan tuman soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

14. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniyev), Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Yu.Murodov);

Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan xolda kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalar bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishiga hamda ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga ma’sul etib belgilansin.

15. Tuman hokimligi:

tuman budjetiga shakllangan qo‘shimcha manbalarining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin, bunda, tuman xalq deputatlari, tuman Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

tuman hokimligi favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashlariga hisobot berish sharti bilan qo‘shimcha manbalarni yo‘naltirish bo‘yicha qarorlarni qabul qiladi.

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

16. Tuman hokimligi tomonidan budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot kiritib borilsin.

17. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniyev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi hamda tegishli tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

18. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19. Mazkur qaror “Karmana ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Ushbu qaror 2025 yil 1 yanvardan e`tiboran kuchga kiradi.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Zayniyev) va xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ADIZOV VALIJON
YUSUPOVICH

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-5-71-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Karmana tumanining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Maqsadli mo‘ljallar	
			2026-yil	2027-yil
1.	Ist’emol narxlari indeksi, o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	8,0	7,5	7,0
2.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	6,4	7,0	7,5
3.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	5,7	5,8	5,3
4.	Xizmatlar ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	19,5	14,6	14,6

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-5-71-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Karmana tumanining tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
Daromad jami		**108 850 050,0**
1	Aylanmadan soliq	15 060 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5 320 050,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	722 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 746 000,0
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 100 000,0
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	21 609 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 600 000,0
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	20 627 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9 191 000,0
10	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	875 000,0

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-5-71-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Karmana tuman byudjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**108 850 050,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**108 850 050,0**
1	**Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**16 670 905,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**16 670 905,0**
	umumiy ta’lim	6 833 413,0
	Maktabgacha ta’lim	9 837 492,0
2	**Tuman madaniyat bo‘limi**	**4 865 080,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 865 080,0
3	**Tuman Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**13 538 038,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**13 538 038,0**
	Tuman sport maktabi	7 994 734,0
	Tuman Yoshlar ishlari agentligi	5 543 304,0
4	**Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 317 877,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 317 877,0
5	**Tuman qishloq xo‘jalik bo‘limi**	**3 815 059,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 815 059,0**
	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish	3 462 484,0

	bo‘limi	
	Tuman fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	352 575,0
6	**Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 501 717,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 501 717,0
7	**Tuman hokimligi**	**38 742 175,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**38 742 175,0**
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	3 220 334,0
	Tuman xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	149 259,0
	Tuman mahallabay ishlash tadbirkorliknirivojlantirish markazi	5 086 997,0
	Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining tuman bo‘limi	2 179 659,0
	Hokimliklarning zaxira jamg‘armalari	1 589 797,0
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limi	58 269,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	46 200,0
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 440 000,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	24 672 079,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	299 581,0
8	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**26 399 199,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**26 399 199,0**
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	22 399 199,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlariga	4 000,000

Xalq deputatlari Karmana tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-5-71-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yil uchun umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

T/R	Hudud nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
		MRI	DSB+DSI	MRI	DSB+DSI	MRI	DSB+DSI	MRI	DSB+DSI	MRI	DSB+DSI
1	Karmana tumani	0	5	0	0	0	100	0	100	100	100

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-5-71-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	MFY nomi	Bazaviy stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (1 kv. uchun)
1	O'zbekiston MFY	492,8	0,90	443,52
2	Talqoq MFY	492,8	1,20	591,36
3	Sardoba MFY	492,8	0,90	443,52
4	Paxtaobod MFY	492,8	1,20	591,36
5	Pahlavon MFY	492,8	1,20	591,36
6	Nurafshon MFY	492,8	1,20	591,36
7	Narpay MFY	492,8	1,20	591,36
8	Do'stlik MFY	492,8	0,90	443,52
9	Navro‘z MFY	492,8	1,20	591,36
10	Mirsaid Baxrom MFY	492,8	1,20	591,36
11	Uyrot MFY	492,8	1,20	591,36
12	Ko'hna Qurgon MFY	492,8	1,20	591,36
13	Kumushkon MFY	492,8	0,90	443,52
14	Qahramon MFY	492,8	1,20	591,36
15	Katta machit MFY	492,8	1,20	591,36
16	Kalovat MFY	492,8	1,20	591,36
17	Ziyokor MFY	492,8	1,20	591,36
18	Jaloyir MFY	492,8	1,20	591,36
19	Malik MFY	492,8	0,90	443,52
20	Farhod MFY	492,8	1,20	591,36
21	Bog'ishamol MFY	492,8	0,90	443,52
22	Xonchorbog' MFY	492,8	1,20	591,36
23	Do'rman MFY	492,8	1,20	591,36
24	Azamat MFY	492,8	1,20	591,36
25	Ayronchi MFY	492,8	1,20	591,36
26	Alisher Navoiy MFY	492,8	1,20	591,36
27	Allon MFY	492,8	1,20	591,36
28	Arabxona MFY	492,8	1,20	591,36
29	Arg'un MFY	492,8	1,20	591,36
30	Beshkent MFY	492,8	1,20	591,36
31	Varq MFY	492,8	1,20	591,36
32	Gulobod MFY	492,8	1,20	591,36
33	Degaron MFY	492,8	1,20	591,36
34	Yangihayot MFY	492,8	0,90	443,52
35	Buyuk ipak yo‘li MFY	492,8	0,90	443,52
36	Yangi varq MFY	492,8	1,20	591,36

37	Zarafshon MFY	492,8	1,20	591,36
38	Yangi obod MFY	492,8	1,20	591,36
39	Yangi ariq MFY	492,8	1,20	591,36
40	Shibzon MFY	492,8	1,20	591,36
41	Xo‘ja Xisrav MFY	492,8	1,20	591,36
42	Hazora MFY	492,8	1,20	591,36
43	Dehqon MFY	492,8	1,20	591,36

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-5-71-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	MFY nomi	bazaviy stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (1 ga uchun)
1	O'zbekiston MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
2	Talqoq MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
3	Sardoba MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
4	Paxtaobod MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
5	Paxlavon MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
6	Nurafshon MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
7	Narpay MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
8	Do'stlik MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
9	Navro‘z MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
10	Mirsaid Baxrom MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
11	Uyrot MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
12	Ko'hna Qo'rg'on MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
13	Kumushkon MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
14	Qaxramon MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
15	Katta machit MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
16	Kalovat MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
17	Ziyokor MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
18	Jaloyir MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
19	Malik MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
20	Farxod MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
21	Bog'ishamol MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
22	Xonchorbog' MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
23	Do'rman MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
24	Azamat MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
25	Ayronchi MFY	67 320 000	1,20	80 784 000,0
26	Alisher Navoiy MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
27	Allon MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
28	Arabxona MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
29	Arg'un MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
30	Beshkent MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
31	Varq MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
32	Gulobod MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0

33	Degaron MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
34	Yangi hayot MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
35	Buyuk ipak yo‘li MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
36	Yangi varq MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
37	Zarafshon MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
38	Yangi obod MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
39	Yangi ariq MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
40	Shibzon MFY	67 320 000	1,10	74 052 000,0
41	Xo'ja Xisrav MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0
42	Xazora MFY	67 320 000	1,00	67 320 000,0
43	Dexqon MFY	67 320 000	1,30	87 516 000,0

Xalq deputatlari Karmana tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-030-5-71-K/24 -son qaroriga
7-ilova

2025-yil uchun “Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari

t/r	MFYlar	2025-yil uchun prognoz		Jami	*Shundan, 10 foizi "Mahalla byudjeti" jamg‘armasiga o‘tkaziladi*
		Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan daromadlardan tushadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig‘iga undirilgan soliq		
1	Bog‘ishamol	129	645	**774**	77,4
2	Ko‘hna qo‘rg‘on	85	320	**405**	40,5
3	Azamat	78	304	**382**	38,2
4	O‘zbekiston	77	376	**453**	45,3
5	Katta machit	74	404	**478**	47,8
6	Farhod	67	90	**157**	15,7
7	Shibzon	65	693	**758**	75,8
8	Varq	64	461	**525**	52,5
9	Beshkent	60	221	**281**	28,1
10	Yangi ariq	53	338	**391**	39,1
11	Navro‘z	53	478	**531**	53,1
12	Talqoq	52	496	**548**	54,8
13	Ziyokor	41	343	**384**	38,4
14	Do‘stlik	37	418	**455**	45,5
15	Dehqon	34	164	**198**	19,8
16	Sardoba	34	93	**127**	12,7
17	Arg‘un	32	345	**377**	37,7
18	Alisher Navoiy	32	246	**278**	27,8
19	Paxtaobod	31	390	**421**	42,1
20	Narpay	30	395	**425**	42,5
21	Kalovot	28	414	**442**	44,2
22	Uyrot	25	353	**378**	37,8
23	Pahlavon	22	264	**286**	28,6
24	Yangiobod	22	345	**367**	36,7
25	Ayronchi	22	413	**435**	43,5
26	Mirsaid Baxrom	21	121	**142**	14,2
27	Jaloyir	20	295	**315**	31,5
28	Allon	18	294	**312**	31,2
29	Kumushkon	18	291	**309**	30,9
30	Yangihayot	16	133	**149**	14,9
31	Nurafshon	15	327	**342**	34,2

32	Gulobod	14	153	**167**	16,7
33	Qahramon	13	238	**251**	25,1
34	Do‘rman	12	306	**318**	31,8
35	Malik	12	135	**147**	14,7
36	Arabxona	11	431	**442**	44,2
37	Xonchorbog‘	11	336	**347**	34,7
38	Xo‘ja Xisrav	10	123	**133**	13,3
39	Hazora	10	344	**354**	35,4
40	Degaron	7	333	**340**	34,0
41	Buyuk ipak yo‘li	6	23	**29**	2,9
42	Zarafshon	0	20	**20**	2,0
43	Yangi Varq	0	27	**27**	2,7
Jami Karmana tumani		**1 461**	**12 939**	**14 400**	**1 440,0**